
TUMAN HOKIMI TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATI BILAN YAQINDAN TANISHMOQDA



Qo'shtepa tumani hokimi Anvarjon Abdullayev ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishga ko'maklashish maqsadida tumandagi ta'lim muassasalari faoliyati bilan yaqindan tanishmoqda.



Xususan, tuman rahbari 36-umumta'lim maktabida bo'lib, muassasada o'quvchi va o'qituvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar, dars va kasbga o'qitish jarayonlari hamda fan to'garaklari faoliyati bilan tanishdi.

Tuman hokimi tomonidan mas'ul rahbarlarga dars va kasbga o'qitish jarayonlari hamda fan to'garaklari soni va sifatini oshirish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2024-04-01 15:57:59